

SPORT SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR: INNOVATSIYALAR, INTEGRATSIYALAR VA PEDAGOGIK TA'LIM JARAYONLARINI ZAMONAVIY AXBOROT TEXNALOGIYALARI ASOSIDA SAMARALI TASHKIL ETISH

Ergasheva Madina Bahriddin qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

madinabahriddinovna14@gmail.com

Abriyeva Aziza Faxriddin qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti talabasi, azizaabriyeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada sport sohasida raqamli texnologiyalar, innovatsiyalar, integratsiyalar va samaradorlikni tashkil etish, jismoniy tarbiyada raqamli texnologiyalarning hozirgi kundagi o'rnini yanada oshirish va sport sohasidagi innovatsiyalarning sportchilar uchun keltiradigan qulayliklar haqida ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: Sport sohasida raqamli texnologiyalar, texnologiyalar, axborot texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsiyalar, integratsiyalar.

DIGITAL TECHNOLOGIES, INNOVATIONS, AND INTEGRATIONS IN THE FIELD OF SPORTS, AND THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF PEDAGOGICAL EDUCATION PROCESSES BASED ON MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES.

Annatation: This paper provides information on digital technologies, innovations, integrations and efficiency in the field of sports. It also discusses the current role of digital technologies in physical education, ways to further enhance their use and the conveniences that sports innovations offer to athletes.

Keywords: digital technologies in the field of sports, technologies, information technologies, information and communication technologies, innovations, integrations.

ЭФФЕКТИВНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ, ИННОВАЦИЙ, ИНТЕГРАЦИЙ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ В СФЕРЕ СПОРТА НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.

Аннотация: В данной работе представлена информация о цифровых технологиях, инновациях, интеграциях и организации эффективности в сфере спорта. Также рассматривается современная роль цифровых технологий в физическом воспитании, путь дальнейшего повышения их применения и удобства, которые инновации в сфере спорта предоставляют спортсменам.

Ключевые слова: цифровые технологии в сфере спорта, технологии, информационные технологии, информационно-коммуникационные технологии, инновации и интеграции.

Asosiy qism: Bugungi kunda sport sohasida jadal rivojlanib borayotgan yo‘nalishlardan biri bo‘lib, ushbu jarayonda raqamli texnologiyalarning o‘rni beqiyosdir. Raqamli texnologiyalar sport mashg‘ulotlarini tashkil etish, sportchilar tayyorgarligini nazorat qilish hamda ularning jismoniy holatini tahlil qilishda keng qo‘llanilmoqda.

Jamiyat taraqqiyotining olg‘a siljishi eng avvalo, inson omiliga bog‘liqdir. Shuning uchun ham inson o‘z tafakkuri, aql-zakovatini ko‘proq ijodiy ishlarga jalb qilish shartligi e‘tirof etilmoqda. Yangidan-yangi texnik qurilma va vositalarni kashf qilish insonni o‘z yashash sharoitiga, qilayotgan ishlariga, ilmiy-texnik izlanishlariga ijodiy yondashish samarasidir.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta‘lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta‘minlash, bu borada pedagogik kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratilmoqda.

Mamlakatimizda ta‘lim sohasida ro‘y berayotgan tub yangilanishlar har bir ta‘lim muassasasida o‘quv jarayoni metodik ta‘minotini rivojlantirishni talab etadi. Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari yaqin yillar ichida pedagogik innovatsiyalarning asosiy manbai bo‘lib qoladi.

Zamonaviy ta‘lim tizimining asosiy sifati va yuqori texnologiyali muhit tashkil etish. Uning yaratilish va rivojlanishi texnik jihatdan murakkab, ammo bunday muhit ta‘lim tizimini takomillashtirishga, ta‘lim jarayoniga axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga xizmat qiladi.

Ta‘limda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etilishi:

- Fan sohalarini axborotlashtirishni;
- O‘quv faoliyatini intellektuallashtirishni;
- Integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishni;
- Ta‘lim tizimi infratuzilmasini va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga olib keladi.

Pedagogik ta‘lim jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish:

- Talabaga kasbiy bilimlarni egallashiga;
- O‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasini chuqur o‘zlashtirishga;
- O‘quv faoliyatining xilma-xil tashkil etishi hisobiga talabaning mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga;
- Sun‘y intellekt tizimi imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabaning o‘quv materiallarini o‘zlashtirish strategiyasini egallashga;

- Axborot jamiyati aʼzosi sifatida unda axborot madaniyatining shakllanishiga;

- Oʻrganilayotgan jarayon va hodisalarni kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, talabalarda fan asoslariga qiziqishni va faollikni oshirishga olib kelishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, jismoniy tarbiya va sport taʼlimda raqamli texnologiyalarni integratsiyalash taʼlim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Multimedia vositalari, virtual mashgʻulotlar va interaktiv dasturlar orqali oʻquvchilarning sportga boʻlgan qiziqishi kuchayadi hamda mashgʻulotlar yanada samarali tashkil etiladi. Natijada sport bilan shugʻullanuvchilarning jismoniy rivojlanish va sport natijalari yaxshilanadi.

Raqamli multimedia dasturlari. Asosiy vazifalari: trening; oʻzini boshqarish; tuzatish; tashqi nazorat. Maʼlumki, davlat taʼlimi standartlariga muvofiq, turli sohalarda boʻlajak mutaxasislarni tayyorlash tizimi kasbiy standartlarni hisobga oladi. Masalan, Jismoniy madaniyat kadrlarini tayyorlash sohasida quyidagi standartlarni hisobga olishi nazarda tutadi: “Trener”, “Instruktor-metodist”, “Tashkilot (tashkilot boʻlimi) rahbari”, “Jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyat olib borishi”, “Dopingga qarshi kurash” muhim ahamiyat kasb etadi. Sport hakamlari tayyorlashda multimedialli oʻquv dasturlari ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buning sababi shundaki, har qanday sport musobaqasini oʻtkazish, bu musobaqa qoidalariga rioya qilinishi va jiddiy tayyorgarlik talab qiladi, ayniqsa, musobaqa natijalarini baholash boʻyicha amalga oshiriladigan sport turlari boʻyicha oʻziga xos vakolat va toifalarga ega boʻlgan hakamlar mavjud boʻlsa, maqsadga muvofiqdir.

Oʻtkazilgan tahlillar natijasida raqamli texnologiyalarning sport sohasidagi qoʻllanilishi bir necha asosiy yoʻnalishlarda yuqori samaradorlik koʻrsatgani aniqlandi. Avvalo, mashgʻulot jarayonlarida sunʼiy intellekt asosida ishlovchi dasturlar va GPS-trakerlar orqali sportchilarning harakat faolligi, yurak urishi, energiya sarfi kabi koʻrsatkichlar muntazam monitoring qilinmoqda. Bu esa ortiqcha yuklanishning oldini olish va individual yondashuvni taʼminlash imkonini bermoqda.

Ikkinchidan, musobaqa paytidagi qarorlar shaffofligini oshirish uchun video yordamchi hakam (VAR), elektron vaqt oʻlchov tizimlari va yuqori aniqlikdagi kameralar joriy etilgan. Bu texnologiyalar hakamlar xatolarini kamaytirib, sport adolatini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Uchinchidan, Oʻzbekiston baʼzi sport maktablari va federatsiyalarda “aqlli stadion” loyihalari, onlayn mashgʻulot platformalari, sportchilarning sogʻligini kuzatuvchi raqamli kartalar joriy etila boshlagan. Shu orqali sport infratuzilmasi bosqichma-bosqich raqamlashtirilmoqda.

Toʻrtinchidan, raqamli texnologiyalar orqali mashgʻulot samaradorligi oshmoqda. Murabbiylar mashqlarni real vaqt rejimida kuzatib, takomillashtirilgan mashgʻulot rejasini tuzishga erishmoqda. Ayniqsa, jarohatlarning oldini olishda tibbiy texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Raqamli texnologiyalar sportga kirib kelishi bilan ushbu sohada ilgari imkon boʻlmagan koʻplab yondashuvlar yuzaga chiqdi. Bu bir tomondan, sportchilarning individual imkoniyatlarini ochib berish, ularning tayyorgarligini shaxsiylashtirish,

sogʻlik holatini kuzatish hamda samarali yondashuvlarni ishlab chiqishga zamin yaratmoqda. Boshqa tomondan esa, bu texnologiyalardan foydalanish imkoniyati barcha hudud va sport turlari uchun bir xil emasligi muammo boʻlib qolmoqda. Raqamli infratuzilma yetishmovchiligi, texnik mutaxassislar kamligi, moliyaviy resurslarning yetarli emasligi sportni raqamlashtirish jarqayoniga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda.

Kelajakda raqamli sport tizimining muvaffaqiyatli shakllanishi uchun quyidagi choralar dolzarb hisoblanadi: sport muassasalarida texnik infratuzilmani mustahkamlash; trener va sportchi sohasidagi IT-mutaxassislarini tayyorlash; sportchilarning texnologik savodxonligini oshirish; texnologiyalar asosida yaratilgan maʼlumotlar xavfsizligini kafolatlash.

Xulosa qilib aytganda, sport sohasida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, mashgʻulot jarayonlarini samarali tashkil etish, sportchilar faoliyatini nazorat qilish va yuqori natijalarga erishishda muhim kasb etadi. Innovatsion texnologiyalar yordamida sportchilarning jismoniy holati, yuklama darajasi va sogʻligi doimiy ravishda tahlil qilinib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Salomov R.S. Sport mashgʻulotining nazariy asoslari. – Toshkent, 2005
2. Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati I jild. Toshkent, 2014
3. Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati II jild. Toshkent, 2015
4. Xolmatov A.X. Sport innovatsion texnologiyalari. – Toshkent, 2020
5. Karimov B. Raqamli texnologiyalar va sport tibbiyotining integratsiyasi. Ilm va taraqqiyot. 2023.